
AHOLI PUNKTLARINING BOSH REJALARI – JAMOAT MUHOKAMASIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 - 2025 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6119-son Farmonida, Aholi punktlarining bosh rejalari jamoat muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda tasdiqlanishi belgilangan.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida, Farg‘ona viloyati Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan davlat shaharsozlik kadastri ma'lumotlari ochiqligini ta'minlash, ishlab chiqilib o‘rnatilgan tartibda tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlarini onlayn ko‘rish imkonini beruvchi tizim ishga tushirilgan.

Bugungi kunda boshqarma rasmiy veb-saytiga viloyatimizdagi 15 ta aholi punktining Bosh rejalari kiritilgan bo‘lib, fuqarolarimiz, tadbirkorlar bevosita veb-saytga kirgan holda ushbu shaharsozlik hujjatlari bilan erkin tanishishi mumkin.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-04-09 12:27:51